O'ZBEKISTON QURILISH KORXONALARIDA KORPORATIV-IJTIMOIIY MAS'ULIYAT HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	795
Murotkosimov Shoxrux Abdusalimovich	
ТЕНДЕНЦИИ ИЗМЕНЕНИЯ ВАЛОВОГО ВНУТРЕННЕГО ПРОДУКТА УЗБЕКИСТАНА ЗА ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	803
Ишонкулова Феруза Асатовна	
CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	808
Sadinov Aziz Ziyadullayevich	
BOJXONA BOSHQARUVIDA RAQAMLASHTIRISHNING XALQARO TAJRIBASI	814
Radjapova Latofat Sardorovna	
MILLIY IQTISODIYOTDA SANOAT KORXONALARI RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI	821
Abdullayeva Madina Kamilovna	
UY-JOY QURILISHI SOHASIGA ESKROU MEXANIZMINI JORIY ETISH ORQALI ULUSHDORLAR MABLAG'LARINI HIMOYA QILISH ISTIQBOLLARI	827
Nigmatov Akbarjon Anvarovich	
TASHQI SAVDO BALANSINI MUVOZANATLASHTIRISH	831
Rahimov Eshmurod Normurodovich, Misliddinov Ikromjon Kamoliddin o'g'li	
DON VA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING YEVRIPA TAJRIBASI	837
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li	
RAQAMLI SUG'URTA (INSURTECH) EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH VA O'ZBEKISTONDA MOLIVAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHLATLARI.....	842
Nozimov Eldor Anvarovich	
MAHALLIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ASOSIDA IMPORT O'RNINI BOSUVCHI MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH STRATEGIYASI	847
Sobitova Ra'no Solidjonovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI.....	850
Raxmonov Aziz Iskandarovich	
COST ANALYSIS IN FRUIT AND VEGETABLE PROCESSING PLANTS.....	855
Rahmatullayev Mirjalol Khatam ogli	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH TIJORAT SIRINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	861
Butayev Dilshod Eshbekovich	
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ОБЛАЧНЫЕ БУХГАЛТЕРСКИЕ СИСТЕМЫ: НАДЁЖНОСТЬ ОТЧЁТНОСТИ И КИБЕРБЕЗОПАСНОСТЬ.....	867
Бозорова Озода Рахимовна	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BANKLARNING CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	872
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi	
XALQARO STANDARTLARNI AMALGA OSHIRISH JARAYONIDA AUDITORLAR VA KORXONALAR UCHUN AMALIY TAVSIYALAR.....	877
Ibragimov Azizbek Keldibek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	882
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH	888
Omanov Sanjar Qurbonazar o'g'li	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI SOLIQ IMTIYOZLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI.....	894
Usmonov Shavkatjon Shukurovich	
АДАПТАЦИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УПРАВЛЕНИЯ ПЕРСОНАЛОМ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ	901
Абилов Эльман Худаверди оглы	
QURILISH SOHASIDA KORPORATIV IJTIMOIIY MAS'ULIYAT: XALQARO TAJRIBA VA QIYOSIY TAHLIL.....	906
Murotkosimov Shoxrux Abdisalimovich	
TADBIRKORNING KREDIT, FOIZ, SOLIQ TO'LOVLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI XUSUSIDA.....	914
Hakimov Odil Arziqulovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IQTISODIYOTNING REAL SEKTORIGA KIRITILGAN INVESTITSIALARNI MOLIYALASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	918
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KORXONALARDA MOLIYAVIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	925
Xalilova Aziza Rustamovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	930
Uzakova Umida Ruziyevna	
INVESTITSIYA JALB QILISHNING HUDUDIIY MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIIY MAZMUNI.....	936
Shamsiyeva Ruxsora Nasirovna	
HUDUDLARNING TURISTIK SALOHIIYATINI OSHIRISHDA TURISTIK ZONALARNING AHAMIYATI	940
Umarova Mahliyo Yaxshiboy qizi	
HUDUD OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SANOATI ISHLAB CHIQARISH KO'RSATKICHLARI SAMARADORLIGINING EKONOMETRIK VA STATISTIK TAHLILI.....	945
Xursanov Sherzod Ulaboyevich	
YUK TASHUVLARIDA LOGISTIK PROVAYDERLAR FAOLIYATINING NAZARIY-USLUBIIY ASOSLARI	951
Mannapova Feruza Faxriddin qizi	



MAMLAKAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	956
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna	
IQTISODIYOTDAGI TARKIBIY O'ZGARISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI RAQOBATCHILIK MUHITINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	963
Maxmudova Ferangis Raxmatillayevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT TARAQQIYOTINING HOLATI VA USTUVOR MAQSADLI KO'RSATKICHLARI	968
Saidova Madinaxon Hoshimjon qizi	
FERMER XO'JALIKLARINING O'ZBEKISTON AGRAR SEKTORIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	973
Islamova Dilnoza Isamidinovna	
ZIYORAT TURIZMINING MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI.....	978
Uzaqov Jamshid Norboyevich	
TIJORAT BANKLARINING EMISSION OPERATSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	983
Shaymanov Mexriddin Ibragimovich	
ISLOM MOLIYASIDA MAJBURIYAT VA OMONAT MEXANIZMLARI: RAHN, VADIYA VA HAVALA.....	987
Sadikova Ra'no Abdullaevna	
FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI	991
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich	



FIRIBGARLIK BILAN BOG'LIQ AUDITORLIK TEKSHIRUVI RISKLARINI KAMAYTIRISH MASALALARI



Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich

Namangan davlat texnika universiteti dotsenti

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

ORCID: 0009-0004-6147-547X

Annotatsiya. Maqolada auditorlik tekshiruvida firibgarlik bilan bog'lik risklarni xalqaro audit standartlar talablari asosida kamaytirishdagi dolzarb masalalar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: audit, auditorlik faoliyati, moliyaviy hisobotlar, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari, auditning xalqaro standartlari.

Abstract. The article examines current issues of reducing fraud-related risks in audit engagements in accordance with the requirements of International Standards on Auditing.

Key words: audit, auditing activity, financial statements, International Financial Reporting Standards, International Standards on Auditing.

Аннотация. В статье исследованы актуальные вопросы снижения рисков, связанных с мошенничеством при проведении аудиторской проверки, на основе требований международных стандартов аудита.

Ключевые слова: аудит, аудиторская деятельность, финансовая отчетность, международные стандарты финансовой отчетности, международные стандарты аудита.

KIRISH

Moliyaviy firibgarliklar muammosi hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayni paytda an'anaviy ko'rinishdagi audit va korporativ boshqaruvning tartib-taomillari xo'jalik yurituvchi subyektlarni ataylab amalga oshiriladigan firibgarliklardan to'laqonli himoya qila olmaydi. Shu o'rinda audit tekshiruvlari jarayonida moliyaviy firibgarliklarning oldini olishga, ochib tashlashga va qayd etishga qaratilgan maxsus yondashuvlar va taomillarning ishlab chiqilishi, joriy etilishi hamda amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditorlik faoliyatida firibgarlik bilan bog'liq risklarni aniqlash va kamaytirish masalalari xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq etilgan. Xususan, xalqaro auditorlik standartlarida firibgarlik auditorlik tekshiruv jarayonidagi eng muhim xavf omillaridan biri sifatida e'tirof etilib, auditorning kasbiy shubha (professional skepticism) tamoyiliga qat'iy rioya etishi zarurligi ta'kidlanadi. Xalqaro Auditorlik Standarti (ISA) 240 "Moliyaviy hisobot auditida firibgarlik bilan bog'liq mas'uliyat" auditorning firibgarlik tufayli yuzaga keladigan muhim noto'g'ri aks ettirish risklarini aniqlash, baholash va ularga auditorlik javob choralari ishlab chiqish bo'yicha metodik



asoslarni belgilab beradi [1]. Ushbu standartda firibgarlik xatolardan farqli ravishda ongli ravishda sodir etilishi, yashirish mexanizmlarining murakkabligi va ichki nazorat tizimini chetlab o'tish ehtimoli yuqoriligi bilan ajralib turishi qayd etilgan.

ISA 315 va ISA 330 standartlarida ham firibgarlik risklarini baholash masalasi ichki nazorat tizimini o'rganish, biznes jarayonlarini tahlil qilish hamda riskka mos auditorlik protseduralarini qo'llash orqali yoritilgan [2]. Ushbu yondashuvlar auditorlik riskining tarkibiy qismi sifatida firibgarlik riskini tizimli baholash zaruratini ilmiy jihatdan asoslaydi. Xalqaro standartlarda auditorning javobgarligi cheklangan bo'lsa-da, u firibgarlik ehtimoli yuqori bo'lgan sohalarga alohida e'tibor qaratishi lozimligi alohida urg'ulanadi.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda firibgarlik risklarini kamaytirishda auditorlik texnologiyalarining rivojlanishi, xususan, ma'lumotlar tahlili (data analytics), uzluksiz audit va raqamli audit vositalarining ahamiyati keng yoritilgan. Masalan, A. Arens, R. Elder va M. Beasley tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda firibgarlikni aniqlashda analitik protseduralar, g'ayrioddiy operatsiyalarni aniqlash va boshqaruvning motivatsion omillarini baholash auditorlik tekshiruvining samaradorligini oshirishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [3]. Shuningdek, COSO tomonidan ishlab chiqilgan "Fraud Risk Management Guide" hujjatida firibgarlik risklarini korporativ boshqaruv darajasida aniqlash va oldini olish mexanizmlari auditorlik risklarini kamaytirishda muhim omil sifatida baholanadi [4].

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa firibgarlik bilan bog'liq auditorlik risklarini kamaytirish masalasi ko'proq milliy buxgalteriya hisobi tizimi, ichki nazoratning amaliy holati va auditorlik faoliyatining institutsional muammolari bilan bog'liq holda tahlil qilingan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar auditorlik tekshiruvlarida firibgarlik holatlarining yuzaga kelishiga axborot asimmetriyasi, ichki nazorat tizimining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda auditorlarning kasbiy tajribasi va mustaqillik darajasi ta'sir ko'rsatishini qayd etadilar [5]. Shuningdek, milliy auditorlik standartlarini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish firibgarlik risklarini boshqarish samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida baholanadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, firibgarlik bilan bog'liq auditorlik risklarini kamaytirish masalasi kompleks yondashuvni talab etadi. Xalqaro standartlar metodologik asos bo'lib xizmat qilsa, xorijiy tadqiqotlar zamonaviy audit texnologiyalarining ahamiyatini ochib beradi, mahalliy ilmiy ishlanmalar esa milliy sharoitdan kelib chiqqan holda muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlashga yo'naltirilgan. Bu holat mazkur mavzuni yanada chuqurroq tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, mantiqiy taqqoslash, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, ilmiy manbalarni umumlashtirish hamda induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ISA 240, ISA 315 va ISA 330 standartlari asosida firibgarlik risklarini baholash yondashuvlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki, moliyaviy hisobotlar auditining birlamchi maqsadi moliyaviy hisobotlarda qayd etilgan ma'lumotlarning haqqoniy va ishonchli ekanligi borasida auditorning fikrini ifoda etishdir. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy firibgarlik moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlarning buzib ko'rsatilishida, aktivlarning talon-taroj qilinishida va korrupsion mazmundagi operatsiyalarda namoyon bo'ladi. Auditorlik faoliyatida firibgarlikka nisbatan munosabat 240-sonli Audit xalqaro standarti "Moliyaviy hisobotlar auditidagi firibgarlikka nisbatan auditor majburiyatlari"da belgilab berilgan (2009-yilning 15-dekabrida yoki ushbu sanadan keyin boshlanadigan davrlar uchun moliyaviy hisobotlarning auditiga nisbatan kuchga kirgan).

Mazkur standartning 3-moddasi moliyaviy hisobotlar auditini nuqtai nazaridan firibgarlik tushunchasini izohlab beradi. Unga ko'ra, moliyaviy hisobotlardagi buzib ko'rsatishlar firibgarlik yoki xato natijasida yuzaga kelishi mumkin. Firibgarlik bilan xato o'rtasidagi farqlovchi omil moliyaviy hisobotlarning buzib ko'rsatilishiga olib keladigan asosiy harakat qasddan qilinganligi yoki qasddan qilinmaganligidir. Umuman olganda, firibgarlik keng yuridik tushuncha hisoblanadi. Shunga qaramasdan, moliyaviy hisobotlar haqqoniy ekanligi borasida fikr bildirilishi nuqtai nazaridan auditor moliyaviy hisobotlarda muhim buzib ko'rsatishlarga sabab bo'ladigan firibgarlik bilan shug'ullanadi. Shuning uchun firibgarliklarning ikki turi auditor tomonidan ko'rib chiqilishi o'rinli bo'ladi – yolg'on moliyaviy hisobot berishdan kelib chiqadigan buzib ko'rsatishlar va aktivlarni noqonuniy o'zlashtirishdan kelib chiqadigan buzib ko'rsatishlar. Firibgarlik sodir bo'lganligi haqida auditor shubha qilishi, tegishli harakatlarni amalga oshirishi yoki firibgarlikni aniqlashi mumkinligiga qaramasdan, auditor firibgarlik haqiqatda sodir bo'lganligini yuridik jihatdan aniqlamaydi.

Moliyaviy firibgarlikda xo'jalik operatsiyasi shaklan qonuniy ko'rinishda amalga oshiriladi va korrupsion mazmun niqoblangan bo'ladi.



Amaldagi qonunchilikka binoan firibgarlikning oldini olish va aniqlash majburiyati tadbirkorlik subyekting boshqaruvi zimmasidadir. Boshqaruv yuklatilgan shaxslarning bu boradagi faoliyatida firibgarlikning oldini olishga kuchli e'tibor qaratilishi muhim, bu firibgarlik sodir bo'lishi imkoniyatini kamaytiradi va firibgarlikdan saqlanishga olib keladi. Ayni paytda bunday vaziyatda fosh etilish va jazolanish ehtimoli tufayli shaxslarni firibgarlikni sodir etmaslikka undab turadi. Boshqacha qilib aytganda, bu xodimlarda vijdonlilik va axloqiy fe'l-atvor madaniyatini mustahkamlaydi. Shu jihatdan auditor boshqaruv yuklatilgan shaxslar tomonidan kuzatuv me'yorlarini chetlab o'tish yoki moliyaviy hisobot berish jarayoniga noo'rin ta'sir o'tkazish ehtimolini ko'rib chiqishi lozim bo'ladi.

Barcha operatsiyalarning mazmun-mohiyatini batafsil o'rganish imkoniyati cheklanganligi sababli auditor operatsiyalar amalga oshirilishidagi qator belgilarga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi:

- ichki nazorat tizimi faoliyatining korxona mol-mulki daxlsizligini ta'minlashga, firibgarliklar va mulkni o'zlashtirishga real qarshi qaratilganligi, amaldagi qonunchilik bilan hamohangligi;
- biznes uchun xos bo'lmagan operatsiyalar;
- biznes uchun xos, lekin biznes ko'lamlariga mos bo'lmagan operatsiyalar;
- korxonada menejment faoliyati uchun o'rnatilgan qoidalar doirasidan tashqaridagi operatsiyalar;
- menejment tomonidan amaldagi qonunchilikka rioya etilmasligi hollari;
- korxonaga ochiqdan-ochiq zarar keltirayotgan operatsiyalar.

Aktivlarning o'g'irlanishi va korrupsiya moliyaviy firibgarlikning eng keng tarqalgan turlaridir. Korxona rahbariyatining va oddiy xodimlarning nomunosib harakatlari tovarlarni va xizmatlarni pasaytirilgan baholarda sotishda va boyliklarni oshirilgan baholarda sotib olishda, ombordagi boyliklarni mayda o'g'irlashlarda, shuningdek korxona oliy boshqaruvining moliyaviy lo'ttibozliklarida namoyon bo'lishi mumkin.

Yuridik niqoblangan mayda o'g'irliklar shaklidagi nomunosib harakatlar uzoq vaqt ko'zga tashlanmasligi va korxona faoliyati uchun nisbatan sezilmasligi mumkin. Lekin ularning hajmlari yig'ilib borgan sari firibgarlar ko'rilayotgan zararlarni yashirish zaruriyati kuchayadi, ma'lumotlar soxtalashtiriladi, axborotni buzib ko'rsatishga intilishlar vujudga keladi. Bunday hollarda firibgarlikka yo'l qo'ygan xodimlar moliyaviy hisobotlarni buzib ko'rsatishda "ijodkorlik" ko'rsatishlariga to'g'ri keladi. Moddiy boyliklar o'g'irlanishi xarajatlar ortishi orqali yoki past baholarda sotish ko'rinishida, pul mablag'lari esa asossiz debitor qarzlari orqali pardalanadi. Shu orqali korxonaning moliyaviy ahvoli qoniqarli ekanligi haqida tasavvur shakllantiriladi.

Korrupsiya rahbarlar yoki oddiy xodimlarning xizmat mavqeidan foydalanib amalga oshiradigan harakatlari bo'lib, korxona manfaatlariga zid ravishda moliya-xo'jalik operatsiyalariga ta'sir o'tkaziladi va buning evaziga noqonuniy mablag'lar qo'lga kiritiladi.

To'g'ridan-to'g'ri moliyaviy firibgarlik bo'lmayotgan, lekin pirovard natijada korrupsion maqsadlarni ko'zlovchi harakatlar ham mavjud. Ularga moliyaviy hisobotlar ma'lumotlarini buzib ko'rsatishlar ham kiradi. Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash tartibi qonunchilikda qat'iy belgilab qo'yilgan. Shunday bo'lsa-da, ularni tayyorlovchi shaxslar "ijodiy" yondashgan holda, professional mulohazaga asoslanib, muayyan maqsadlarni ko'zlagan holda moliyaviy hisobotdagi ko'rsatkichlarda tuzatishlarga yo'l qo'yadilar. Albatta, moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda amaldagi qonunchilik talablaridan chetga chiqish tegishli ma'muriy va jinoiy javobgarlikka olib keladi.

240-sonli AXSning 7-moddasi auditorning rahbariyat firibgarligidan yuzaga keladigan muhim buzib ko'rsatishni fosh eta olmaslik riski xodimlar firibgarligidan yuqoriroq ekanligini, chunki rahbariyat bevosita yoki bilvosita jurnal yozuvlarini o'zgartirish, firibgarlikka asoslangan moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etish yoki boshqa xodimlar sodir etadigan o'xshash firibgarliklarning oldini olishga mo'ljallangan nazorat tartib-taomillarini chetlab o'tish vaziyatida tez-tez bo'lib turishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shuning uchun 8-moddaga ko'ra, moliyaviy hisobotga ishonch bildirishda auditor rahbariyatning nazorat tartib-taomillarini chetlab o'tish imkoniyatlarini ko'rib chiqqan holda hamda xatoni fosh etishda samarali bo'lgan auditorlik tartib-taomillari firibgarlikni fosh etishda samarali bo'lmisligi mumkinligini tan olgan holda audit mobaynida professional skeptitsizmni saqlashi lozim va javobgardir.

Shunday qilib, moliyaviy hisobotlar auditi olib borilishida moliyaviy hisobotlar ma'lumotlari taqdim etilishi bilan bog'liq firibgarliklar alohida o'rin egallaydi. Ularga quyidagilar misol keltirilishi mumkin:

- hisobot davri tugagan bo'lsa ham registrlardagi yozuvlar yakunlanmaganligi;
- shartnomalar operatsiyalar bo'lib o'tgandan keyin tuzilganligi;
- soxta sotuvlar va yetkazib berishlar haqida yozuvlar; daromadlarning noto'g'ri turkumlanishi;
- chegirmalarning har xil taqdim etilishi;
- jo'natilgan mahsulot bo'yicha daromadning noto'g'ri tan olinishi;
- uzoq muddatli bitimlar bo'yicha bajarilgan ishlar foizini oshirib yoki kamaytirib ko'rsatilishi;
- bitim yoki shartnomalarning qonunchilikda belgilangan rasmiy shakllariga rioya qilmasdan tuzilganligi;
- soxta asosiy vositalar;
- olingan aktivlar qiymatining oshirib ko'rsatilishi;
- kelgusi davrlar xarajatlarning asossiz oshirib ko'rsatilishi;



- xarajatlarning noto'g'ri yoki noo'rin kapitallashtirilishi;
- gudvil va nomoddiy aktivlar qiymatining yetarli asoslanmaganligi;
- investitsiyalarning noto'g'ri turkumlanishi;
- debitor qarzlari oshirib ko'rsatilishi yoki soxta debitorlik;
- kreditor qarzlarni kamaytirib ko'rsatilishi;
- balansdan tashqari schetlardagi chalkashliklar;
- ustav kapitaliga ulushlar kiritilishida adolatli baholardan foydalanmaslik;
- muhim moddalar bo'yicha axborotning ochib berilmasligi.

Firibgarlik riski omillarini baholashda Auditning Xalqaro Standarti (AXS) 240 "Moliyaviy hisobotlar auditidagi firibgarlikka nisbatan auditor majburiyatlari" AXS 200 "Mustaqil auditorning umumiy maqsadlari va auditni Auditning xalqaro standartlariga muvofiq o'tkazish" kontekstida qaraladi. 240-AXSda moliyaviy hisobotlar auditidagi firibgarlikka nisbatan auditor majburiyatlari firibgarlik oqibatidagi muhim buzib ko'rsatish risklariga nisbatan AXS 315 va AXS 330 qo'llanilishi doirasini kengaytiradi.

Moliyaviy hisobotlardagi buzib ko'rsatishlar firibgarlik yoki xato natijasida yuzaga kelishi mumkin. Firibgarlik bilan xato o'rtasidagi farq mazmunan olib qaralganda moliyaviy hisobotlarning buzib ko'rsatilishiga olib keladigan asosiy harakat qasddan qilinganligi yoki qasddan qilinmaganligidir. Firibgarlik keng yuridik tushuncha bo'lishiga qaramasdan, AXSlar talablari doirasida auditor moliyaviy hisobotlarda muhim buzib ko'rsatishlarga sabab bo'ladigan firibgarlik bilan shug'ullanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Auditorlik faoliyati riski vujudga kelishi nuqtai nazaridan qasddan qilingan buzib ko'rsatishlarning ikki turi auditor uchun o'rinni – yolg'on moliyaviy hisobot berishdan kelib chiqadigan buzib ko'rsatishlar va aktivlarni noqonuniy o'zlashtirishdan kelib chiqadigan buzib ko'rsatishlar. Auditor axloq kodeksiga binoan firibgarlik sodir bo'lganligini shubha qilishi yoki, kam holatlarda, aniqlashi mumkinligiga qaramasdan, auditor firibgarlik haqiqatda sodir bo'lganligini yuridik jihatdan aniqlamaydi.

Firibgarlikning oldini olish va aniqlashning asosiy majburiyati tadbirkorlik subyekting boshqaruv yuklatilgan shaxslari va rahbariyatiga yuklanadi. Rahbariyat, boshqaruv yuklatilgan shaxslarning kuzatuv bilan birga, firibgarlikning oldini olishga kuchli e'tibor qaratishi muhim hisoblanadi, bu firibgarlik sodir bo'lishi imkoniyatini kamaytiradi va firibgarlikdan saqlanishga olib keladi, o'z navbatida bunday holat fosh etilish va jazolanish ehtimoli tufayli shaxslarni firibgarlik sodir etmaslikka ishonitirishi mumkin.

Oqilona tashkil etilgan menejment rahbariyat zimmasiga o'z xodimlarida vijdonlilik va axloqiy fe'l-atvor madaniyatini yaratish mas'uliyatini ham yuklaydi. Bu madaniyat boshqaruv yuklatilgan shaxslar tomonidan faol kuzatuv orqali mustahkamlanadi.

Moliyaviy hisobotlarda buzib ko'rsatishlarga olib keluvchi firibgarlikni baholash boshqaruv yuklatilgan shaxslar tomonidan hisob yuritishda me'yorlarni chetlab o'tish yoki boshqa moliyaviy hisobot berish jarayoniga noo'rin ta'sir o'tkazish ehtimolini ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Masalan, tadbirkorlik subyekti faoliyati va foydaliligi bo'yicha axborotdan foydalanuvchilar hamda tahlilchilar bilimlariga ta'sir ko'rsatish uchun foydani maqbul darajada ko'rsatishga rahbariyat intilishlari kabi holatlar mavjud bo'lishi mumkin.

Auditor firibgarlik mavjud emasligiga ishonish uchun asoslarga ega bo'lmaguncha, u yozuvlarni va hujjatlarni haqiqiy deb qabul qilishi mumkin. Lekin audit jarayonidagi kuzatishlar va tahliliy taomillar auditor uchun hujjat haqiqiy bo'lmashligi mumkinligiga ishora qilsa yoki hujjatdagi shartlar o'zgartirilganligi, ammo auditorga buning sabablari ochib berilmaganligini ko'rsatsa, auditor tekshiruvni davom ettirishi lozim.

Rahbariyat va boshqaruv yuklatilgan shaxslardan rasmiy so'rovlarga javoblar bir-biriga ziddi aniqlansa, auditor nomuvofiqliklarni tekshirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). *ISA 240: The Auditor's Responsibilities Relating to Fraud in an Audit of Financial Statements*. New York: IFAC.
2. IAASB. *ISA 315 & ISA 330: Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement and Auditor's Responses*. IFAC.
3. Arens, A. A., Elder, R. J., and Beasley, M. S. *Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach*. Pearson Education.
4. COSO. *Fraud Risk Management Guide*. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission.
5. Кади́рова, Х. Т. (2019). Некоторый взгляд на классификацию рынка ценных бумаг. In Теоретические и практические аспекты развития науки в современном мире (pp. 81-86).
6. Кади́рова, Х. Т., & Мирзахоліков, Б. Б. (2019). Проблемы развития инвестиционной политики на финансовом рынке и пути их решения. In Интеграция науки и практики в современном мире (pp. 35-43).
7. Кади́рова, Х. (2024). Модели и тенденции развития формирующихся финансовых рынков. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(8).



8. Mashrabjonovna, X. D. (2025). O'QITUVCHI INNOVATSION SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH ZAMONAVIY O'QITUVCHINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLI SIFATIDA. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 63-66.
9. Mashrabjonovna, K. D. (2023). Innovative Competence and Its Determinants. Web of Teachers: Inderscience Research, 1(4), 20-23.
10. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirezayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. Tashkent» economics-finance»—2013.
11. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 12(11), 38-47.
12. Kholmirezayev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 203-209.
13. Khakimov, J. B., & Kholmirezayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(7).
14. Muradova, N. (2023). APPLICATION OF ITALIAN EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESSES AND ENTREPRENEURSHIP IN THE FUTURE. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 12(04), 24-28.
15. Muradova, N. Kichik Biznesni Rivojlantirishga Oid Xorijiy Mamlakatlarning Ilg'or Nazariyalari Va Yondashuvlari. Green Economy and Development, 3(11), 667831.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
